

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLIGIYA INSTITUTI

YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

Himoyaga ruxsat e'tildi

fakultet dekani, dotsent

\_\_\_\_\_U.Meliboyev

«\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_2018 y.

Kafedra mudiri, dotsent

\_\_\_\_\_J.Yuldashev

«\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_2018 y.

5320900-“Yengil sanoat mahsulotlarini konstruktsiyasini ishlash va  
texnologiyasi (yengil sanoat)

Mamarasulova Saodathon Obidjon qizi

“Bog'cha yoshidagi qiz bolalar beli kesikli ko'ylagi va lozimini konstruktsiyasini qurish va modellashtirish,  
ishchi andozalar tayyorlash” mavzusidagi

# DIPLOM LOYIHASI

Bitiruvch:

S.Mamarasulova

Diplom loyihasi rahbari:

D.Rayimberdiyeva

Maslahatchilar:

H.Xaydarov

Sh.Saidboyev

Namangan-2018 yil

# **NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

“Yengil sanoat texnologiyasi” fakulteti

«Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi» kafedrası

Tasdiqlayman \_\_\_\_\_

Kafedra mudiri J.Q.Yuldashev

2017 yil 6 dekabr

5320900-«Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi»  
yo`nalishi

15u-14 guruhi talabasi Mamarasulova Saodathon Obidjon qizi

## **Diplom loyiha ishi bo`yicha topshiriq**

1. Diplom loyiha ishining mavzusi “Bog`cha yoshidagi qiz bolalar beli kesikli ko`ylagi va lozimini konstruksiyasini qurish va modellashtirish, ishchi andozalar tayyorlash”

«06» dekabr 2017 yil kafedra majlisida ma`qullangan.

2. Diplom loyiha ishini topshirish muddati- 14 iyun 2018 yil

3. Diplom loyiha ishini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar: Eskizlar chizish, modelni konstruksiyasini o`rganish va uni qurish, optimal variantdagi eskiz model chizmasini modellashtirish, ishchi andozasini ishlab chiqish va texnologik jarayonlarini loyihalash.

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro`yhati). Bog`cha yoshidagi qizlar beli kesimli ko`ylagi va lozimining eskiz model namunalarini ishlab chiqish, optimal variantdagi eskiz model na`munasini asos konstruksiyasini qurish, modellashtirish, ishchi andozalarini ishlab chiqish, tikish texnologik jarayonlarini tuzish va texnologik jarayonlarni loyihalash.

5. Chizma ishlar ro`yxati (chizmalar nomi aniq ko`rsatiladi).

1. Zamonaviy eskiz model namunalari.
2. Konstruktsiya chizmalari
3. Modellashirish va ishchi andozalar chizmalari
4. Texnologik tikish tartib va moslik grafigi

## 6. Diplom loyiha ishi bo'yicha maslahatchilar

| № | Bo'lim mavzusi                | Maslahatchi o'qituvchi<br>F. I. SH. | Imzo, sana        |                     |
|---|-------------------------------|-------------------------------------|-------------------|---------------------|
|   |                               |                                     | Topshiriq berildi | Topshiriq bajarildi |
| 1 | Kirish                        | D.Rayimberdiyeva                    | 06.12.2017        | 06.01.2018          |
| 2 | Badiiy-muhandislik qismi      | D.Rayimberdiyeva                    | 09.01.2018        | 24.02.2018          |
| 3 | Muhandis-konstruktorlik qismi | D.Rayimberdiyeva                    | 26.02.2018        | 31.03.2018          |
| 4 | Texnologik qism               | D.Rayimberdiyeva                    | 02.04.2018        | 28.04.2018          |
| 5 | Ekologik qism                 | X.Xaydarox                          | 30.04.2018        | 12.05.2018          |
| 6 | Iqtisodiy qism                | Sh.Saidboyev                        | 14.05.2018        | 02.06.2018          |
|   | Yakuniy qism                  | D.Rayimberdiyeva                    | 04.06.2018        | 09.06.2018          |

Topshiriqlar to'liq bajarildi \_\_\_\_\_

## 7. Diplom loyiha ishini bajarish rejasi

| № | Diplom loyiha ishi bosqichlarining nomi | Bajarish muddati (sana) | Tekshiruvdan o'tganlik belgisi |
|---|-----------------------------------------|-------------------------|--------------------------------|
| 1 | Kirish                                  | 06.01.2018              |                                |
| 2 | Badiiy-muhandislik qismi                | 24.02.2018              |                                |
| 3 | Muhandis-konstruktorlik qismi           | 31.03.2018              |                                |
| 4 | Texnologik qism                         | 28.04.2018              |                                |
| 5 | Ekologik qism                           | 12.05.2018              |                                |
| 6 | Iqtisodiy qism                          | 02.06.2018              |                                |
|   | Yakuniy qism                            | 09.06.2018              |                                |

Diplom loyiha ishi rahbari: D.Rayimberdiyeva

\_\_\_\_\_  
(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: S.Mamarasulova

\_\_\_\_\_  
(imzo)

Topshiriq berilgan sana 2017 yil 6 dekabr

Himoyaga ruxsat 2018 yil 14 iyun

Kafedra mudiri: J.Q.Yuldashev

\_\_\_\_\_  
(imzo)

## Mundarija

| <b>№</b> | <b>Diplom loyiha bo`limlari nomi</b>                                                                                    | <b>Beti</b> |
|----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
|          | <b>Kirish</b>                                                                                                           |             |
| 1        | <b>Badiiy-muhandislik qismi</b>                                                                                         |             |
| 1.1.     | Texnik topshiriqni loyihalash va bajarish uchun boshlang`ich ma'lumotlarni ishlab chiqish                               |             |
| 1.2.     | Zamonaviy modayo`nalishi tahlili                                                                                        |             |
| 1.3.     | Eskiz loyihani ishlab chiqish                                                                                           |             |
| 2        | <b>Muhandis-konstruktorlik qismi</b>                                                                                    |             |
| 2.1.     | Loyihalanayotgan ob'ekt material paketini konfeksionlash                                                                |             |
| 2.2.     | Asosiy konstruktsiya qurish usulini asoslab tanlash                                                                     |             |
| 2.3.     | AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar                                                                        |             |
| 2.4.     | Asos konstruksiyani qurish va hisobi                                                                                    |             |
| 2.5.     | Loyiha ob'ektini konstruktiv modellash                                                                                  |             |
| 2.6.     | Ishchi hujjatlarni tuzish                                                                                               |             |
| 2.6.1.   | Yangi model andozalarini tayyorlash printsiplari                                                                        |             |
| 2.6.2.   | Loyihalanayotgan modeiga gazlama sarflash normasining hisobi                                                            |             |
| 3        | <b>Texnologik qism</b>                                                                                                  |             |
| 3.1      | Tikuv buyumlarni tayyorlash jarayonini texnologik bog`liqligini tahlili                                                 |             |
| 3.1.1    | Asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash                                                                   |             |
| 3.1.2    | Buyum tikish texnologik tartibini tuzish                                                                                |             |
| 3.2      | Ishlab chiqarish oqimlarini hisoblash                                                                                   |             |
| 3.2.1    | Ishlab chiqarish oqimini loyihalash masalasini tuzish. ishlab chiqarish oqimi turini va transport vositalarini tanlash. |             |
| 3.2.2    | Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy texnik echimini va dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish.                           |             |
| 3.2.3    | Ishlab chiqarish oqimining tashkiliy-texnologik sxemasini tahlil qilish.                                                |             |
| 3.2.4    | Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy-tehnika echimini texnik-iqtisodiy tahlili                                            |             |
| 3.2.5    | Ishlab chiqarish oqimini va tikuv tsexi planini tuzish.                                                                 |             |
| 4        | <b>Ekologik qism</b>                                                                                                    |             |
| 5        | <b>Iqtisodiy qism</b>                                                                                                   |             |
|          | <b>Xulosa</b>                                                                                                           |             |
|          | <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati</b>                                                                               |             |
|          | <b>Ilovalar</b>                                                                                                         |             |

## **Kirish.**

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etishni, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqorolik jamiyat qurmoqda. Inson uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mehanizmlarini yaratishdan iborat. Keyingi yillarda yengil sanoat sohasida kattagina muvaffaqiyatlarga erishildi: materiallarning ichki tuzilishi va xossalarini tadqiq etish, shuningdek ularning sifatiga baho berishning zamonaviy uslublari ishlab chiqildi, mahsulotni tasniflash yuzasidan katta ishlar bajarildi.

Mustaqil Respublikamiz mehnatkashlarini o'sib borayotgan moddiy ehtiyojini har tomonlama qondirish masalasini hal qilishda yengil sanoat va uning eng yirik tarmog'i - tikuvchilik ishlab chiqarish zimmasiga muhim vazifa yuklatilgan. Tikuvchilik sanoati vazifasi O'zbekiston xalqini yuqori sifatli keng assortimentdagi zamonaviy kiyimlar bilan ta'minlash. Tikuvchilik sanoatida ishlab chiqarish korxonalarini va firmalami tashkil qilishni kengaytirish, tikuv korxonalarni ixtisoslashtirishni amalga oshirish, yangi texnika va texnologiyaga ega tayyorlov-bichish va pardozlash sexlarini tashkil qilish, tikuv buyumlarini tayyorlash bo'yicha yuqori unumli kompleks mexanizatsiyalashgan oqimlarni sanoatga tadbiq etish, texnologik konstruktsiya bo'yicha buyum ishlab chiqarishni tashkil etishni talab etadi. Texnologik jarayonlarni tashkil qilishning asosiy shakllari esa texnologik jarayonlarni yarimavtomat va avtomat mashinalarini keng qo'llab kompleks mexanizatsiyalashtirish uchun sharoit yaratadigan ko'p fasonli oqimlar hisoblanadi.

Insonlarning zamonaviy va sifatli kiyimga bo'lgan ehtiyojining doimiy o'sib borishi korxonalar tomonidan ularning assortimentini ko'paytirish va yaxshilash, sifatini oshirishni talab etadi. Bu vazifani bajarish tikuv korxonalari samaradorligini oshirish va birinchi navbatda ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini qo'llash asosida kiyim tayyorlash jarayonini modellashtirish va loyihalashni takomillashtirish bilan uzviy bog'liq. Bozor sharoitida modelning sifati va ishlab chiqarishga tayyorlash

muddatlari alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun hozirda tikuvchilik sanoatining asosiy vazifalaridan biri moslanuvchan ishlab chiqarishni ta'minlaydigan texnologiyani ishlab chiqish va tadbqiq etish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish, buyum assortimentini tezda almashtirish imkoniyati, ularni tannarxini pasaytirish hisoblanadi.

Xozirda O'zbekistondagi barcha yengil sanoat korxonalari oldiga katta vazifalar qo'yilgan, bunda tabiiy gazlamalardan zamon talablariga, hamda jaxon standartlari talablariga kiyimlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan dasturlar va tadbirlar ishlab chiqarilmoqda.

Respublikamizning ravnaqi ko'p jixatdan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va yangi modellarini yaratish, ularni sifatini yaxshilash, nafaqat Respublikamizning axolisiga, qolaversa chet elliklarga ham manzur bo'ladigan zamonaviy tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishni tashkil etish hamda yengil sanoatni texnologik jarayonlarini moderinizatsiya qilinish soha mutaxasislari oldilaridag asosiy vazifalardan biridir.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahnomoligida 2017-2021-yillarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarning islohatini xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida o'zining kutilgan samarasini bermoqda. Ayniqsa ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnalogiya bilan jihozlash, korxonani modernizatsiyalash chora –tadbirlarini jaxon standartlari talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulaotlar hajmini keskin kuchaytirmoqda. Albatta bunday o'zgarishlarni yengil sanoat tarmog'ida ham yaqqol ko'rish mumkin. “ Bu haqida gapirganda, yengil sanoat, charm poyabzal va farmatsevtika tarmoqlarida kelgusi besh yilda bir trillion 565 milliard so'm sarmoya o'zlashtirilib, jami 353 ta investitsiya loyihasi joriyetilishini alohida aytib o'tmoqchiman. Namangan shahri, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi va Uchqo'rg'on tumanlarida tayyr to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil etish hisobidan viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi 2021-yilga borib hozirgi 49 foizdan 94 foizga ko'tariladi. Hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki, ip-kalavani eksport qilsak, talabga nisbatan 1.4 marta ko'p daromad olamiz. Agar tayyor mahsulotga aylantirib sotadigan bo'lsak,

eksportdan keladigan daromadimiz 6 barobarga ko'payadi. Bu faqat valyuta tushumi emas balki yangi ish o'rinlari, budget ga qo'shimcha soliq va aholi farovonligi demakdir. Shu sababi tekstil va tikuv-trikotaj sanoatida yanada rivojlantirish maqsadida yaqin besh yilda Namangan viloyatida umumiy qiymati 346 million dollar bo'lgan 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Masalan, 2016-2018-yillarda Uchqo'rg'on tumanida 3ta korxonada umumiy qiymati 210 million dollar bo'lgan loyihalar amalga oshirilib yiliga 26 ming tonna ip va aralash kalava , 25 million momiq va 2 million trikotaj buyum ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushiriladi.

Namangan viloyati haqida so'z yuritar ekanmiz birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning "Namanganda pok niyatli insonlar yashaydi" degan so'zlari beixtiyor yodimizga tushadi. Bu samimiy ta'rifda butun xalqimizni fikri ifoda etilgan desak ayni haqiqat bo'ladi. SH.M.Mirziyoyev Namanganni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan g'oya va dasturlari natijasida bugun viloyatimizning barcha hududlari,tobora obod bo'lib barobardan oshib unda sanoat sohasining ulishi16.7foizdan 21foizga yetgani barchamizni quvontirmoqda.Tarmoqni yanada rivojlantirish maqsadida 2017-2021-yillarda toqimachilik ,tikuvchilik va trikotaj sanoatida umumiy qiymati 2.2million dollardan ortiq bolgan 140ta loyha amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Joriy yilda qiymati 90 million dollarga teng 25 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushiriladi.

Yengil sanoat korxonalari a etibor mahsulot eksportini kengaytirishga alohida etibor qaratilmoqda. Shu yilning o'tgan 9oyida eksport hajmi 767.3 millon dollarni tashkil etdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17.9 % ko'pdir.O 'tgan davrda eksport qiluvchi korxonalar soni 38 taga ko'payib 250 taga yetdi.

Menga berilgan diplom loyiham Bog'cha yoshidagi qiz bolalar beli kesikli ko'yilagi va lozimini konstruksiyasini qurish va modellashtirish, ishchi andozalar ishlab chiqish mavzusida, bugungi kunda qo'yilgan talablarni, hom ashyo turlaridan bolalarga mos mato tanlab olganman. Konstruksiyasini qurish qismida ishchi andozalar ishlab chiqildi va modellashtirildi. **Texnologik qismda** maxsulotni narxini, razryatini ,quvvatini,bir dona maxsulot qanchaga tayyor bo'lishini aniqladim.

## 1. BADIY MUHANDISLIK QISMI

### 1.1. Loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar va texnik topshiriqning tuzilishini ishlab chiqish

Loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bog'cha yoshidagi qizlar beli kesimli ko'ylak lozimini loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar.

- **loyihalanayotgan ob'ekt nomi:** bog'cha yoshidagi qizlar beli kesimli ko'ylak lozimi.
- **loyihalanayotgan ob'ekt vazifasi;** kundalik kiyim;
- **tananing antropometrik xarakteristikasi:** bo'yi -164, ko'krak aylanasi - 88, va qorinni hisobga olib bo'ksa aylanasi - 106, to'lalilik guruhi-II;
- **paket material nomi:** zo'rka gazlamasi.

Buyumga bo'lgan talablarni konkretlashtirish kiyimni badiiy jihatdan loyihalash jarayonlarining negizi hisoblanadi. Ijodiy izlanish jarayonida ular shakl hosil qilishga ta'sir etish taqsimotiga asos bo'ladi.

Loyihalanayotgan buyumga qo'yiladigan talablar.

Ma'lumki kiyimga qo'yiladigan bir qancha talablar mavjud. Ushbu to'plam aynan bolalar uchun yaratilganligi sababli unga qo'yiladigan ba'zi talablar o'ta muhim sanaladi. Eng birinchi navbatda bu – gigiyenik talablardir. Gigiyenik sifat ko'rsatkichlari sanitariya va gigiyena me'yorlariga moslikni xarakterlab, kiyim ostida qulay mikro iqlimni ta'minlashi kerak. Tanlangan mato tabiiy tolali bo'lib havo o'tkazuvchan bo'lishi muhimdir [ 3].

Kiyimni sifatini baholash uchun iste'molga oid sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Iste'molga oid ko'rsatkichlar deb, insonning buyumni iste'mol qilish jarayonidagi muayyan talablarni qondirishga qaratilgan buyum xossalari tushuniladi.

Iste'molga oid ko'rsatkichlarga ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik, eksplutatsion ko'rsatkichlar kiradi .

1. Ergonomik talab jumlasiga buyumni eksplatasiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi.

2. Estetik talab jumlasiga model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammaligi va zamonaviy moda talabiga javob berishi hamda haridorligi kiradi. Estetik xususiyatga ega bo'magan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadi funksiyasini – insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatini bajara olmaydi.

3. Funksional talabda model aniq bir vazifaga mo'ljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi.

4. Eksplutatsion talab buyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialning mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishi, chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.

5. Ijtimoiy talab buyumning ishlab chiqish va sotishga muvofiqligini bildiradigan ommaviy ehtiyojlarga mosligini harakterlaydi. Mahsulot sifatini ta'minlashda ijtimoiy omillar roli ilmiy - texnik taraqqiyot va moddiy farovonlik o'sgan sari oshaveradi.

6. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar konstruksiyaning texnik jihatdan mukammallik darajasini, ishlab chiqarishga iste'molchi harajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini bildiradi. Texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlarda standartlash va unifikatsiyalash, konstruksiyasining ishlov berishga qulaylik darajisini va tejamlilik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Shu munosaabat bilan bolalar kiyimlari har bir yosh guruhiga mos holda loyihalanadi. Bog'cha yoshidagi qiz bolalar kiyimlarining assortimenti turli ko'ylaklar, halatlar sarafan, kofta, shim, yarim kombinzonlardan iborat:

Bog`cha yoshidagi bolalar ko`p harakat qilganligi sababli kiyimlar qulay sodda, kiyish va yechish uchun oson bo`lishi kerak. Ko`proq to`g`ri va pasti kengaygan shakllar ishlatiladi. Vishovka, mag`iz, tesma, to`r, ablikatsiyalar esa bolalar kiyimiga turli tumanlik bag`ishlaydi.

Bog`cha yoshidagi qiz bolalar ko`ylagi bichimlarining turli bo`lishi bilan ajralib turadi.

Bog`cha yoshidagi qiz bolalar ko`ylagi asosan paxta tolali gazlamadan tikiladi. Paxta tolali gazlamalar namlikni oson yutadi va tez quriydi, yaxshi yuviladi, dazmol qilishda yuqori haroratga chidamli. Shuning uchun bu turdagi gazlamalardan bolalar kiyimlarini tikishda keng foydalaniladi.

## **1.2. Zamonaviy moda yo`nalishi.**

O`zbekistonda hali talab katta darajada ommabop,sifatli hamda so`nggi moda tendensiyalariga xos darajada ishlab chiqarish yo`lga qo`yilmagan, faqatgina

individual tarzda xaridor talab tavsiyasiga monand yaratilmoqda. Yuqoridagi ma'lumotlarni o`rganib tahlil etilganda, shu narsa ma'lum bo`ldiki, bolalar ko`ylagi modellari muntazam ravishda keskin o`zgarib kelgan.Unda asosan siluet, shakl, ranglar uyg`unligi,faktura, bichimda esa yoqa, yeng, qo`shimcha detall va bezaklar, hamda akssesuarlar o`zgarib borishini kuzatishilishi mumkin.[5]



1-rasm. Bolalar kiyimlari assosrtimeni

Bolalar modasi ham kattalarnikidan qolishmaydi. Shu sababli ham jahonning mashhur dizaynerlari, turli uslub va ranglar uyg'unlashuvini sinab ko'rishni taklif qilishmoqda. Kattalarnikiga xos oddiylik va bejirimlik yaqqol ko'zga tashlanadi. 2018- yilgi mavsumda ikki qarama- qarshi holatdagi tendensiyalar va ranglar uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Bir tomondan bolalar libosida qora va oq hamda kulrang ranglar ustunlik qilib oldi. Bu esa bolalarning yorqin ranglarga burkangan moda olamida butunlay yangilik yasadi.

Ular shakli, konstruktiv qatorlari bo'yicha moda yo'nalishiga muvofiq keladi. Italiyaliklarning o'z yurtiga bo'lgan muhabbati va bejirim Dolce& Gabbana kolleksiyasi, butun dunyodagi onajonlarning boshini aylantirdi. Kutuyrdan taqdim etilgan bolalar liboslari kolleksiyasi qalblarni egalladi.

### **1.3. Eskiz loyihani ishlab chiqish**

#### **Taklif etilgan birinchi modelga tasnif.**

##### **1-modelga tavsif**

Bu model bog'cha yoshidagi qiz bolalar beli kesimli ko'ylak lozimi uchun mo'ljallangan bo'lib fatin matosi bilan uyg'unlashgan. Silueti lif qismi belgacha nim yopishgan, yubka qismi esa etak tomon trapetsiyasimon kengaygan. Ko'ylaklar astarli bo'lib, 2 qismdan iborat: lif va yubka. Lif yuqori qismi yopishgan bo'lib, etak qismi kengaygan. Uzunligi tizzagacha. Old bo'lak; tog'ri bichimli bo'lib, bo'yin o'mizi to'rtburchaksimon shaklida.

Ort bo'lak; 2 bo'lakdan iborat; o'rta chokli, yashirin molniya taqilmali. Yubka; 2 qavatdan iborat; 1 qavat fatin va astardan iborat, bel qismida belbog' bezak vazifasini bajargan yengsiz shaklida.

Lozim milliy libos (kiyim) turi bo'lib, u shimdan kengligi, bichimi bo'yicha farq qiladi. Lozim konstruktiviyasi ikkita yaxlit bichilgan simmetrik bo'lakdan iboratdir. Lozim ko'ylak ostidan kiyilgani uchun uning beldan bo'ksagacha bo'lgan qismi gigienik va qulaylik nuqtai-nazaridan ko'pincha ip gazlamadan bichiladi. Og'i

xishtakli yoki yaxlit bichilgan bo'ladi. Pochasining kengligi model ko'rinishiga bog'liqdir. Lozim pochasiga manjet yoki jiyak tikiladi.

Ko'ylak lozim bilan birgalikda kiyish tavsiya etiladi. Lozimning uzunligi to'piqqacha bo'lib, tanaga yopishib turadi.



## **2- modelga tasnif.**

Bu libos ham atlas matosi va fatin matolarini uyg'unlashtirgan holda yaratilgan bo'lib siluyeti to'g'ri nim yopishgan. Old bo'lak ko'krakdan yuqori qismi fatin matosidan iborat bo'lib ustidan yorqin rangdagi gullar va toshlar bilan bezatilgan. Ort bo'lak o'rta chokli yashirin molniya taqilmali. Uzunligi tizzagacha bo'lib yengsiz tikilgan.

Lozim kalta bichimli konstruksiyasi ga ega. Lozimning pezina o`rnatilgan. Lozimning uzunligi tizza ko`zidan 5-10 sm pastga tushgan. Pochasining kengligi .



### **3- modelga tasnif.**

Keyingi libos ham bog`cha yoshidagi qiz bolalar uchun yaratilgan siluyeti trapetsiyasimon. Ko`ylakning lif qismi gifur matosidan yubka qismi esa 2 qavat fatin matosidan tikilgan. Old o`mizi to`g`ri to`rtburchaksimon bichimli. Ort bo`lak o`rta chokli molniya taqilmali. Yengi bir chokli fonarik yeng. Yeng uchiga lozim etak qismiga qizil fatin matosidan bezak berilgan.

Asosiy model tanlovini asoslash 100 ballik shkala bo`yicha taklif modellarning sifat ko`rsatkichlari va modelning moda yo`nalishiga mosligiga qarab baholanadi (1.2.- jadval).

## Taklif modellarning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholanishi

1.2-jadval.

| №    | Guruhli va yakka sifat ko'rsatkichlarining nomi | SK belgilanish  | SK ahamiyatliligi |      |      |        |
|------|-------------------------------------------------|-----------------|-------------------|------|------|--------|
|      |                                                 |                 | TM-1              | TM-2 | TM-3 | etalon |
| I    | Iste'molchi SK                                  | K <sub>1</sub>  | 48                | 47   | 47   | 47.5   |
|      | Ijtimoiy                                        | K <sub>11</sub> | 9                 | 9    | 9    | 9      |
|      | Funksional                                      | K <sub>21</sub> | 10                | 10   | 9    | 10     |
|      | Estetik                                         | K <sub>31</sub> | 10                | 9    | 9    | 9.5    |
|      | Ergonomik                                       | K <sub>41</sub> | 9                 | 9    | 10   | 9.5    |
|      | Ekspluatatsion                                  | K <sub>51</sub> | 10                | 10   | 10   | 10     |
| II   | Texnik-iqtisodiy SK                             | K <sub>2</sub>  | 49                | 48   | 49   | 48.5   |
|      | Standartlash va unifikatsiyalash                | K <sub>12</sub> | 19                | 20   | 19   | 19.5   |
|      | Konstruktsiyaning texnologikligi                | K <sub>22</sub> | 20                | 19   | 20   | 19.5   |
|      | Iqtisodiy                                       | K <sub>32</sub> | 10                | 9    | 10   | 9.5    |
| Jami |                                                 |                 | 97                | 95   | 96   | 100    |

## **2. MUHANDIS-KONSTRUKTORLIK QISMI**

### **2.1. Loyihalanayotgan ob'ekt paketini konfeksionlash**

O'zbekiston iqlim sharoitlari juda yaxshi taqsimlangan o'lka. O'zbekiston iqlimi issiq, quruq, keskin kontinental. Respublika shimoli mo'tadil, eng janubi subtropik mintaqalarga kiradi. Quruq ob-havo, issiq va yorug'likning ko'pligi yil davomida quyosh tepada turishi bilan harakterlanadi. Kunning uzunligi yozda - 15soat, qishda kamida 9 soat. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, yozgi va qishki havo harorati keskin farqlidir. Yillik havo harorati sezilarli darajada yuqori. Bahor va kuz fasillarida yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli o'rtacha nisbiy namlik miqdori 30 – 40 % gacha ko'tariladi.

Pasttekislik hududlarida yillik yog'ingarchilik miqdori 120 – 200 mm, cho'l hududlarida 1000 mm gacha yetadi.[7]

Loyihalanayotgan ob'yekt paketini tanlayotganda mavsum albatta inobatga olinishi shart. O'zbekiston uchun iliq qish va uzoq davom etdigan jazirama yoz xos. Eng sovuq oy-yanvar. Dekabrda o'rtaacha harorat shimolda 8 daraja va noyabrda 0 daraja, lekin ayrim kunlari mamlakat shimolida sovuq - 25 darajaga yetadi va undan oshadi. Eng issiq oy –iyul. Yozda o'rtacha +25 darajadan oshadi, ayrim kunlari 45 darajaga yetishi va undan oshishi mumkin. Yubka-shimni kiyish uchun eng maqbul oylar bahorning aprel, may oylari yoz faslida kiyish uchun tavsiya etiladi. O'smir qizlar yubka shimini yoz fasliga tavsiya etiladi. Shim uchun tanlangan mos kelishi kerak. Yoz fasliga ko'proq yupqa materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bu loyihaning asosi qiz bolalar bo'lganligi sababli nafis va nozik uchuvchan matolar tanlandi. Bashang liboslarga tanlangan matolar yorqin yengil va albatta mayin bo'lishi kerak. Model eskizini ko'rib chiqqan holda bu bashang liboslarga fatin va shoyi matosi to'g'ri kelishi ko'rib chiqildi.

Fatin – to'qilishi tanda va arqoqdan bo'lgan yumshoq mato, u xar hil choziluvchanlik xususiyatiga ega, mato sintetik poliamid ipi neylondan tayyorlanadi. U. X. Karozers behosdan poliomer tarkibini o'rganayotganda Amerika kimyoviy kompaniyasida DuPont laboratoriyasida yaratgan. Boshqa matolarga nisbatan bir qavatli to'qima silliqqligi deformatsiyaga qarshiliylik xususiyati bilan ajralib turadi.

Fatin kiyim bezatish uchun aksesuar yoki ishirib turuvchi mato sifatida ham ishlatiladi. Setka deb turli xil matolarni aytish mumkun, bularga fatin, gipyur, shifon matolarini misol keltirish mumkun, ularning bir –biriga o`xshash sababi issiqlik dazmol yoqmaydi chunki mato buralib ketadi. Ushbu mato tuzilishi baliq to`riga o`xshaydi.

Fatin tikuvchilik sanoatida zamonaviy mato hisoblanadi. U rang barang bo`ladi qalinligi – 15 va 40 g/m<sup>2</sup> ingichka iplarni baquvvat qilib ari uyasidek to`qiladi.

Fatin ishqalanganda elektrlanadi buni yo`qotish uchun kiyimni yuvayotganda gel quyib yuvilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.



5- rasm. Fatin matosi to`plari.

Fatin o`ta mustahkam bo`lmaganligi sababli undan kundalik kiyim tikilishi tavsiya etilmaydi. Lekin bunga qaramasdan uning rang-barangligi qattiqligi sababli modalar olamida o`z o`rnini egalladi, undan turli xil liboslar tikila boshlandi. Fatin suv o`tkazmaydi, havo o`tkazmaydi va shu sababli o`zida issiqlikni saqlaydi. Suvda o`z holatini yo`qotmaydi, tez quriydi bir qavat fatin havo o`tkazadi va juda yengil bo`lib tanada borligi sezilmaydi.

Birinchi fatin oq bo'lgan hozirda esa ularning rangi rang-barang, ulardan turli xil ko'rinish yulduzchalar, gullar bilan ularni ko'rinishini o'zgartirishyabdi.

6-rasm. Dekoratsiyali fatin matosi.



Fatin ko'proq bashang liboslar romantik bazm uchun kelinlar ko'ylagi, suniy gullar yaratish uchun ishlatiladi.

Fatin bilan bashang kiyim romantik va bazmga xos ko'rniydi. Uning rang-barangligi libosga yanada ko'rkamlik beradi. Fatin matosidan foydalanib turli xil romantik uslubdagi bashang liboslarni yaratish mumkun. Fatini dekoratsiya uchun ham ishlatga bo'ladi. Ushbu loyihada asosiy mato fatin matosi unga qo'shimcha qilib shoyi matosidan foydalanib qiz bolalar uchun bashang libos yaratildi.

Bugungi kunga qadar O'zbek shoyisini ishlab chiqaruvchi hududlar Farg'ona vodiysida joylashgan. Marg'ilon shahri esa allaqachon "Shoyi poytaxti" maqomini olgan. Marg'ilonda joylashgan "Yodgorlik" shoyi to'qish fabrikasi qo'l mehnati asosida shoyi to'qishga ixtisoslashgan eng yaxshi korxona hisoblanadi. Unga 1972 – yilda asos solingan. Fabrikaning ishga tushirishdan asosiy maqsad 2,5 ming yillik tarixga ega bo'lgan qo'lda shoyi matosini to'qish uslubini saqlab qolish bo'lgan.

**Matolarning mexanik xossalari.** Matoning mexanik xossalari pishiqligi, g'ijimlanuvchanligi, qattiqligi va boshqa xossalar kiradi.

**Matoning fizik xossalari.** Matoning fizik xossalari gigroskopikligi,

havo o'tqazuvchanligi, bug` o'tqazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, xo'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi va boshqa xossalari kiradi. Fizik xossalarga qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardozi bog'liq bo'ladi.

1-jadval

| №  | Mato nomi    | Mato tarkibi |        | Qalinligi |       | To`qilishi | Eni | Ogirligi |
|----|--------------|--------------|--------|-----------|-------|------------|-----|----------|
|    |              | Tanda        | Arqoq  | Ta nda    | Arqoq |            |     |          |
| 1. | Fatin matosi | sun'iy       | sun'iy | 120       |       | polotno    | 300 | 60       |
| 2  | astar        |              |        |           |       |            |     |          |
| 3. | Qotirma      | kapron       | kapron | -         | -     | Noto`kima  | 150 | 33       |

| <i>Nomlanishi</i>            | <i>Artikul</i> | <i>Namuna</i>                                                                        |
|------------------------------|----------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Ko`ylaklik shoyi</i>      | Import         |                                                                                      |
| <i>“Molniya<br/>“taqilma</i> | Import         |   |
| <i>Qotirmalik mato</i>       | 5035 White     |  |
| <i>Tikuv ipi</i>             |                |  |

|             |                  |                         |             |             |                         |              |
|-------------|------------------|-------------------------|-------------|-------------|-------------------------|--------------|
|             | <i>Tekshirdi</i> | <i>Rayimberdiyeva D</i> |             |             | <i>Konfeksion karta</i> | <i>Varoq</i> |
|             | <i>Bajardi</i>   | <i>Raxmonaliyeva S</i>  |             |             |                         | <b>1</b>     |
| <i>O`zg</i> | <i>Varoq</i>     | <i>Hujjat</i>           | <i>Sana</i> | <i>Imzo</i> |                         |              |

2.2.

**Asosiy konstruksiya qurish usulini asoslab tanlash**

Kiyimni konstruksiyalash murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayon obyekti bo'lib doimiy harakatda bo'luvchi "odam – kiyim" sistemasi hisoblanadi. Evolyutsiya jarayonida odam qomati, uni ehtiyojlari, kiyinish uslublari, moda o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlarni kiyim konstruksiyalashda hisobga olmasdan iloji yo'q. Konstruksiyaning sifatli va yuqori aniqlikda bajarilishi dizaynerning g'oyasini to'liqligicha amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu qatori konstruksiya qurish usulini to'g'ri tanlash ham katta ahamiyat ega.

Konstruksiyalash usulini tanlashda mukammalroq, AKning aniq chizmasini va hisobini ta'minlaydigan, EHM qo'llash imkoniyatini beradigan va ommaviy ishlab chiqarishda qo'llash mumkin bo'lgan metodika afzalroq hisoblanadi.[5,8]

Konstruksiyalashdan maqsad odam tanasini shakliga mos keluvchi tekis materialdan hajmiy shaklni hosil qilishda, konstruksiyasini qurishda kiyim hajmiy shaklini tekislikda kiyim detallari yoyilmasini qurish vazifasi bajariladi. Kiyim yangi namunalarini yaratishda turli hil yoyilmalarni qurish usullaridan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda bichish sistemasining onlab usullari qo'llaniladi. Tikuvchilik ishlab chiqarish korxonasida kiyim loyihalashda eng asosiy bosqichlaridan biri bu kiyim konstruksiyasini qurish va andazasini ishlab chiqishdir. Kiyim konstruksiyasini qurish korxonaning modelyer -konstruktorlik bo'limida bajariladi. konstruktqorlik ishlarini bajarishda ko'p yillik tajriba , bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. konstruksiya qurishda turli hil metodlardan foydalaniladi. YEMKO SEV metodikasi 1975-1985-yillar ichida ommaviy ishlab chiqarish uchun tayyorlangan. Metodikaning 7tomdan iborat kitobi nashr etilgan bo'lib, o'n yil davomida MDH davlatlari konstruktorlari bilan birgalikda erkaklar , ayollar va bolalar kiyim konstruksiyalari bazaviy asoslari va ularni modellash tirish usullari keltirilgan. Ushbu metodika formulalardagi hisob kitob-kitob ishlari tartib nomerlari bo'yicha amalga oshiriladi va bu metodikada hamma kiyim turlari uchun yagona konstruktiv amallar belgilangan.

Ilk marotaba 1891 yilda "Kelajak" nomi bilan ro'yxatdan o'tgan, hozirgi kunda "Myuller va uning o'g'li" nomi bilan ataladigan konstruksiyalashning nemischa usuli aynan shunday takomillashib boradigan usul hisoblanadi. Bu usulda Germaniya ayollar ustki kiyimini ishlab chiqaradigan sanoat birlashmasining yordamida amalga

oshirilgan 1994 yilgi antropometrik o'lchamlar asosida konstruksiya quriladi. Asos konstruksiya qurishga 2006 yilda kiritilgan takomillashtirilishlar, doimiy ravishda qo'shimchalarning antropometrik va moda sanoatidagi o'zgarishlar natijasida yangilanib turilishi faqatgina shu usulda kuzatiladi. Bu usul asosida zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi ham ishlab chiqilgan. Bu usul ommaviy hamda individual ishlab chiqarishda ham birdek qo'l keladi. Bu usulda aholining antropometrik o'zgarishidan hamda kiyim modellarining o'zgarishidan tashqari mato xususiyati ham e'tiborga olinadi. Bu usuldan "Graphis" va "Assist" kabi avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarida keng qo'llaniladi.

Bu usulda asosiy o'lchamlar o'lchash usulida, qolgan o'lchamlar esa berilgan matematik formulalar yordamida hisoblab topiladi. Bu usulda o'lcham olish qoidalari bilan rasmi qo'llanma asosida berilgan. Yelka kiyimlari uchun asosiy o'lchamlar qatoriga bo'y -  $P$ , ko'krak aylanasi -  $O_r$ , bel aylanasi -  $O_T$ , bo'ksa aylanasi -  $O_6$ , yeng uzunligi -  $D_p$  kiradi. Bu usulda konstruksiya qurish oson. Bu usulda yelka kiyimlar uchun asosiy konstruksiya o'ngdan chap tomonga qaratib, bel kiyimlari chapdan o'ng tomonga qaratilib quriladi. Nuqtalar raqamlar bilan belgilanadi. Konstruksiya qurish ketma - ketligi keng va tushunarli qilib izohlab yozilgan. Har bir kiyim assortimenti uchun qo'shimchalar jadvali kiritilgan. Bundan tashqari na'muna uchun keltirilgan modellarning qanday modellashtirilishi ham ko'rsatilgan. Umumlashtiradigan bo'lsak, bu usul butun dunyo tan olib, moda sanoatida keng qo'llanilib kelinayotgan

### **2.3. Asosiy konstruksiya chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar**

AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida o'lchamlar va qo'shimchalar olinadi. AK tuzishda tipaviy figura o'lchamlari tarmoq standard (OST) va davlat standard (GOST)dan tanlanadi. Muayyan konkret figuraga o'lchamlar individual figuradan olinadi. O'lchamlar soni tanlangan va loyihalanayotgan ob'ekt assortimentiga bog'lab olinadi, tushuntirish xatida razmer o'lchamlari jadvalda keltiriladi (2.2.-jadval).

#### **Tipaviy (individual) figuraning o'lchamlari**

##### **2.2.-jadval.**

| №  | O'lchamlar nomi       | Shartli belgisi | Qiymaiti, sm |
|----|-----------------------|-----------------|--------------|
| 1  | 2                     | 3               | 4            |
| 1. | Bo`yin yarim aylanasi | Osh             | 24           |
| 2  | Ko`krak aylanasi      | Og              | 38           |
| 3  | Bel aylanasi          | O <sub>t</sub>  | 39           |
| 4  | Bo`ksa aylanasi       | O <sub>b</sub>  | 43           |
| 5  | Ort bel uzunligi      | Dsp             | 42           |
| 6  | Yubka uzunligi        | D <sub>i</sub>  | 37           |

Qo`shimchalar tanlashda loyihalanayotgan model xususiyatlariga (nomi, vazifasi, silueti, material xususiyati va h.k.) hamda kelgusi mavsum uchun moda yo`nalishi bo`yicha tavsiyalarga ahamiyat berilgan. Tanlangan qo`shimchalar va ularning qiymatlari tushuntirish xatida jadvalda keltirilgan (2.3.-jadval).

### Asos konstruksiya qurish uchun qo`shimchalar.

2.3.-jadval.

| №  | Qo`shimchalar nomi                                           | Shartli belgisi | Qiymati, sm |
|----|--------------------------------------------------------------|-----------------|-------------|
| 1  | 2                                                            | 3               | 4           |
| 1. | Bel chizig`i bo`ylab gavdada bermalol turish qo`shimchasi    | Q <sub>Bl</sub> | 1           |
| 2  | Bo`ksa chizig`i bo`ylab gavdada bermalol turish qo`shimchasi | Q <sub>Bl</sub> | 2           |

### 2.4. Asos konstruksiyani qurish va hisobi Loyihalanayotgan model asos konstkuksiyasi hisobi.

2.4.-jadval.

| №                   | Konstruksiya bo`lagi belgilanishi | Hisobi                                                                                                                                                                      | Qiymati, sm | 1:6 masshtab |
|---------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|--------------|
| 1                   | 2                                 | 3                                                                                                                                                                           | 4           | 5            |
| Ort bo`lak chizmasi |                                   |                                                                                                                                                                             |             |              |
| 1.                  | BlBl <sub>5</sub>                 |                                                                                                                                                                             | 12          | 2            |
| 2                   | Bl <sub>2</sub> Q                 | Bk B-1                                                                                                                                                                      | 25          | 4.3          |
| 3                   | -                                 | Q nuqtadano`ng va chap tomonga gorizontall chiziq o`tkazilib, ort va old bo`lak o`rta chiziqlari bilan kesishgan nuqtalar Q <sub>2</sub> ,Q <sub>4</sub> bilan belgilanadi. | -           | -            |
| 4                   | Q <sub>2</sub> Q <sub>5</sub>     | 0,2(BkYaA+QBk)+1=0,2(53+2)+1                                                                                                                                                | 12          | 2            |

|                            |                                 |                                                                                                                                           |            |             |
|----------------------------|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|-------------|
| 5                          | Bl <sub>5</sub> Bl <sub>7</sub> | $0,1*BkYaA-2=0,1*53-2$                                                                                                                    | 3,3        | 0,5         |
| 6                          | Q <sub>2</sub> Q <sub>6</sub>   | Q <sub>2</sub> Bl <sub>7</sub> :3                                                                                                         |            | 1,6         |
| 7                          | Q <sub>2</sub> Q <sub>7</sub>   | BkYaA:10=53:10;                                                                                                                           | 5,3        | 0,8         |
| 8                          | -                               | Q <sub>5</sub> ,Q <sub>7</sub> ,Q <sub>6</sub> nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.                                           | -          | -           |
| 9                          | -                               | Q <sub>5</sub> nuqtadan qadam chizig`iga perpendikulyar o`tkaziladi va etak qismi bilan kesishgan nuqta E <sub>5</sub> bilan belgilanadi. | -          | -           |
| 10                         | E <sub>5</sub> E <sub>6</sub>   | -                                                                                                                                         | 1,5        | 0,25        |
| 11                         | E <sub>2</sub> E <sub>7</sub>   | -                                                                                                                                         | 2          | 0,3         |
| 12                         | -                               | Q <sub>5</sub> E <sub>6</sub> va Bk <sub>2</sub> ,E <sub>7</sub> nuqtalar chizg`ich yordamida tutashtiriladi.                             | -          | -           |
| <b>Old bo`lak chizmasi</b> |                                 |                                                                                                                                           |            |             |
| 13                         | Bl <sub>1</sub> Bl <sub>6</sub> | Taxlama miqdori                                                                                                                           | 12         | 2           |
| 14                         | Q <sub>4</sub> Q <sub>8</sub>   | $0,2*(BkYaA+QBk)-1=0,2(53+2)-1$                                                                                                           | 10         | 1,6         |
| 15                         | Q <sub>4</sub> Q <sub>9</sub>   | Q <sub>4</sub> Bl <sub>6</sub> :3                                                                                                         |            |             |
| 16                         | Q <sub>4</sub> Q <sub>10</sub>  | BkYaA:10-1=53:10-1                                                                                                                        | 4,3        | 0,7         |
| 17                         | -                               | Q <sub>9</sub> ,Q <sub>10</sub> ,Q <sub>8</sub> nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.                                          | -          | -           |
| 18                         | Bl <sub>6</sub> Bl <sub>8</sub> | -                                                                                                                                         | <b>1</b>   | <b>0,2</b>  |
| 19                         | -                               | Q <sub>8</sub> nuqtadan qdam chizig`iga perpendikulyar o`tkaziladi va etak qismi bilan kesishgan nuqta E <sub>8</sub> bilan belgilanadi.  | -          | -           |
| 20                         | E <sub>8</sub> ,E <sub>9</sub>  | -                                                                                                                                         | <b>1,5</b> | <b>0.25</b> |
| 21                         | E <sub>2</sub> E <sub>10</sub>  | -                                                                                                                                         | <b>2</b>   | <b>0,4</b>  |
| 22                         | -                               | Q <sub>8</sub> E <sub>9</sub> va Bk <sub>2</sub> E <sub>10</sub> nuqtalar chizg`ch yordamida tutshtiriladi                                | -          | -           |

### Lozim konstruktsiyasi chizmasini chizish uchun hisoblar (5-rasm)

$S_g$  III = 33 sm, R=61 sm.

Hisob uchun zaruriy o`lchovlar:


$D_{ts} = 39\text{sm}$ ,  $S_b=52$  sm,  $D_{sp}=100\text{sm}$ ;  $V_k=45,4$  sm.

1-jadval.

| Konstruktiv bo`lak nomi | Belgilani shi | Hisob formulasi | Qiymati sm. |
|-------------------------|---------------|-----------------|-------------|
|-------------------------|---------------|-----------------|-------------|

|                                                     |                               |                                                                        |         |
|-----------------------------------------------------|-------------------------------|------------------------------------------------------------------------|---------|
| 1. Beldan bo'ksagacha bo'lgan masofa.               | TB                            | $TB = 0,5 * D_{bel.ort}$                                               | 19,5    |
| 2. Beldan o'tirgich balandligigacha bo'lgan masofa. | TYa                           | $TYa = D_{bel.ort} + 1,5$                                              | 40,5    |
| 3. Lozim kengligi.                                  | $TT_2 = BB_2$                 | $TT_2 = (S_{bel} / 2) + P_{bel}$<br>$P_{bel} = 10 \dots 15 \text{ sm}$ | 36÷41   |
| 4. Lozim og'i kengligi.                             | YaYa <sub>b</sub>             | $YaYa_{bel} = 0,2 S_{bel} - (1 \dots 3 \text{ sm}).$                   | 7,4÷9,4 |
| 5.                                                  | TT <sup>1</sup>               | $TT^1 = 2 \text{ sm}.$                                                 |         |
| 6.                                                  | T <sup>1</sup> T <sub>5</sub> | $T^1T_5 = 0,1 S_b - 2$                                                 | 3,2     |
| 7. Lozim uzunligi.                                  | T <sub>2</sub> N <sub>1</sub> | $D_{iko'y} - model \text{ bo'yicha}$                                   |         |
| 8. Lozim pocha kengligi.                            | N N <sub>1</sub>              | $NN_1 = 15 \div 20 \text{ sm (model bo'yicha).}$                       | 15÷20   |
| 9.                                                  | N <sub>1</sub> N <sub>2</sub> | $N_1 N_2 = 1,0 \div 1,5 \text{ sm}$                                    | 1,0÷1,5 |

### 3.5. Kiyim konstruksiyasi chizmasi ( M 1:6)



**4-rasm. Beli kesimli ko`ylak-lozim.**

### 2.5. Loyiha ob'ektini konstruktiv modellash

Asos konstruksiya tanlangan modelga muvofiq quyidagicha modellashtiriladi.


Yubka-shim:

- beli kesimli ko`ylak yubka qismi etak tomonga qarab kengaytiriladi;
- old bo`yin o`mizi ovalsimon bichimli;
- yengsiz;
- beliga kesim berilgan;

- yubka qismi etak tomon paralel va konussimon kengaytirilgan;
- beliga belbog` bilan modellashtirilgan

### Lozim

- lozimning uzunligi to`piqgacha;
- xishtaksiz modellashtirilgan;
- yubka-shim ort bo`lagida ham etakgacha kengaytirish amalga oshiriladi;



**5-rasm.**Yubka-shim konstruksiyasini konstruktiv modellash

## **2.6. Ishchi hujjatlarni tuzish**

Andozalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga konstruktorlik hujjatlarining yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Andozalar chizmasi quyidagi ketma – ketlikda bajariladi:

- Model konstruksiyasi batafsil tekshiriladi.
- Chizmaga gazlamaning kirishuvchanligiga bog`liq aniqlik kiritiladi.
- Detallarning nusxasi boshqa qog`ozlarga tushuriladi.
- Asosiy detallarning andozalarining ishchi chizmalari quriladi.
- Ishlab chiqarishga mo`ljallangan andozalar tayyorlanadi.

Andozalarni rasmiylashtirish va texnik talablar:

- Andozaning nomi: Etalon andoza, haqiqiy andoza, ishchi andoza.
- Tikuv buyumning nomi: bog`cha yoshidagi qizlar beli kesimli ko`ylak lozimi.
- Model raqami
- Andoza vazifasi: Asosiy andoza, hosila andoza, yordamchi andoza.
- Detal nomi
- Tikuv buyumning o`lchami
- Modelga tavsiya etilgan bo`y va o`lchamlarning chegaralari
- Detalning gabarit o`lchamlari
- Bazis chiziqlari
- Tanda ipi yo`nalishi va ruxsat etilgan og`ish burchagi
- Detal qirqimlarida chok haqqi
- Nazorat kertiklari
- Spetsifikatsiya bo`yicha detal nomeri
- Konstruktorning familiyasi, imzosi va chiqarilgan sana

### **2.6.1. Yangi model andozalarini tayyorlash printsiplari**

Diplom loyihasi tushuntirish xatida asosiy detallarning ishchi andozalarini tayyorlash va ularni aniqlash xususiyatlari tavsiflangn, andozalar tayyorlash uchun texnik shartlar keltirilgan. Konstruktorlik hujjatlar 2.5, 2.6, 2.7, 2.8-jadvallardan tashkil topgan.

## Andozalardagi chok haqlari

2.5.-jadval.

| № | Detal va qirqimlar<br>Nomi | Chok haqi nomi va qiymati, sm |             |                    |           |                                 | Izoh |
|---|----------------------------|-------------------------------|-------------|--------------------|-----------|---------------------------------|------|
|   |                            | Biriktirma chok               | Mag`iz chok | Buklash qayirishga | Qirqishga | Kirishtirish va ishlov berishga |      |
| 1 | 2                          | 3                             | 4           | 5                  | 6         | 7                               | 8    |
| 1 | <b>Old bo`lak</b>          |                               |             |                    |           |                                 |      |
|   | -Yuqori qirqim-            | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -Yon qirqim                | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -bel qirqimi               | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -yelka qirqimi             | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -yubka bel q               | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -yubka etak qi             | -                             | -           | 20                 | -         | -                               | -    |
|   | <b>lozim</b>               |                               |             |                    |           |                                 |      |
|   | -Qadam qirqimi             |                               | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -Pocha qirqimi             |                               | 20          | -                  | -         | -                               | -    |
| 2 | <b>Ort bo`lak</b>          |                               |             |                    |           |                                 |      |
|   | -Yuqori qirqim             | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -Yon qirqim                | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -o`rta qirqim              | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -bel qirqim                | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -yubka bel q.              | 10                            | -           | 20                 | -         | -                               | -    |
|   | -yubka etak q.             | -                             | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | <b>lozim</b>               |                               |             |                    |           |                                 |      |
|   | -Qadam qirqimi             | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -Pocha qirqimi             | -                             | -           | 20                 | -         | -                               | -    |
| 3 | Belbog`                    |                               |             |                    |           |                                 |      |
|   | -Yuqori qirqim             | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -Yon qirqim                | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |
|   | -Pastki qirqim             | 10                            | -           | -                  | -         | -                               | -    |

## Detallar spetsifikatsiyasi

2.6-jadval

| №         | Detallar nomi          | Detal<br>kodining<br>belgisi | Detailarsoni |          | Izoh     |
|-----------|------------------------|------------------------------|--------------|----------|----------|
|           |                        |                              | Andozada     | Bichiqda |          |
| <b>1.</b> | <b>2</b>               | <b>3</b>                     | <b>4</b>     | <b>5</b> | <b>6</b> |
| 1.        | Old bo`lak lift qismi  | 01                           | 1            | 1        |          |
| 2         | Ort bo`lak lift qismi  | 02                           | 1            | 2        |          |
| 3         | Old bo`lak yubka qismi | 03                           | 1            | 1        |          |
| 4         | Ort bo`lak yubka qismi | 04                           | 1            | 1        |          |
| 5         | Old bo`lak adip qismi  | 05                           | 1            | 1        |          |
| 6         | Ort bo`lak adip qismi  | 06                           | 1            | 1        |          |
| 7         | Belbog`                | 06                           | 1            | 2        |          |
| 8         | lozim                  | 07                           | 1            | 2        |          |

## Andozalarda nazorat kertiklar qoyish joylarining ro`yxati

2.7.-jadval.


| №  | Detallar va qirqimlar nomi                                                      | Kertiklar joylanishi                           |
|----|---------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|
| 1  | 2                                                                               | 3                                              |
| 1. | Old bo`lak<br>-Yuqori qirqim<br>-Yon qirqim<br>-Qadam qirqimi<br>-Pocha qirqimi | -bel, bo`ksa chizig`ida                        |
| 2  | Ort bo`lak<br>-Yuqori qirqim<br>-Yon qirqim<br>-Qadam qirqimi<br>-Pocha qirqimi | -bel,bo`ksa chizig`i,yon qirqim,qadam qirqimda |
| 3  | Belbog`                                                                         | -yon.qismida                                   |
|    | Lozim                                                                           | -bel,bo`ksa chizig`i,yon qirqim,qadam qirqimda |

## Detallarda tanda ipining nominal yo`nalishi va andozalarda ulardan yo`l qo`yilgan og`ishlar


2.8.-jadval.

| №  | Detallar nomi          | Tanda ipining yo`nalishi       | Tanda ipining yo`l qo`yilgan og`ishi,<br>% |
|----|------------------------|--------------------------------|--------------------------------------------|
| 1  | 2                      | 3                              | 4                                          |
| 1. | Old bo`lak lift qismi  | O`rta chiziqqa parallel o`tadi | 1,0                                        |
| 2  | Ort bo`lak lift qismi  | O`rta chiziqqa parallel o`tadi | 1,0                                        |
| 3  | Old bo`lak yubka qismi | O`rta chiziqqa parallel o`tadi | 1,0                                        |

|   |                        |                                                            |     |
|---|------------------------|------------------------------------------------------------|-----|
| 4 | Ort bo`lak yubka qismi | O`rta chiziqqa parallel o`tadi                             | 1,0 |
| 5 | Old bo`lak adip qismi  | Bort chizig`iga parallel                                   | 2,0 |
| 6 | Ort bo`lak adip qismi  | Bort chizig`iga parallel                                   | 2,0 |
| 7 | Belbog`                | Detal uzunligi bo`ylab                                     | 3   |
| 8 | lozim                  | Lozim bel qirqimi o`rtasidan<br>pochasigacha tushgan o`rta | 1,0 |



|      |           |              |      |      |                       |       |
|------|-----------|--------------|------|------|-----------------------|-------|
|      | Tekshirdi | Ergashev J   |      |      | Old bo`lak andozalari | Varoq |
|      | Chizdi    | Turg`unova G |      |      |                       | 2     |
| O`zg | Varoq     | Hujjat       | Sana | Imzo |                       |       |



|      |           |              |      |      |                     |       |
|------|-----------|--------------|------|------|---------------------|-------|
|      | Tekshirdi | Ergashev J   |      |      | Ort bo`lak andozasi | Varoq |
|      | Chizdi    | Turg`unova G |      |      |                     | 3     |
| O`zg | Varoq     | Hujjat       | Sana | Imzo |                     |       |

### 2.6.2. Loyihalanayotgan modelga gazlama sarflash normasining hisobi

Ushbu bo`limda andozalar maydonini o`lchash, andozalarni gazlamaga yoyish va andozalararo chiqitlar foizini aniqlash ishlari o`tkazilgan. Tushuntirish xatida andozalar maydonini o`lchashda foydalanilgan usul tavsiflangan.

Tikuvchilik kiyimlari tannarxining 80 – 90 % ini material narxi tashkil etadi. Buni bajarishda material sarfini to`g`ri normallashtirishga bog`liqdir. Gazlama sarfini tejashda andozalar satxini aniq o`lchash katta ahamiyatga ega.

Andozalar satxini hisoblashning bir necha usullari mavjud:

- Geometrik usulda xar bir andoza satxi mayda geometrik shakllarga bo`linib, shu shakl satxini alohida – alohida hisoblab chiqiladi va yig`indisi topiladi. Olingan natija ma`lum andozaning yuzasi deb olinadi.
- Mexanik usulda andozalar yuzasi zamonaviy ALT larda hisoblash mumkin.
  - Diplom loyihasini bajarishda andozalarning yuzasi geometrik usuldan foydalanib aniqlanadi.

Asosiy detallar va butun komplekt andozalarning yuzasini o`lchash natijalari 2.9.-jadvalda keltirilgan.

#### Yangi model andozalarining maydoni (yuzasi)

2.9.-jadval.

| Detallar nomi          | Detal kodining belgisi | Detallar soni |          | Detallar maydoni, mm <sup>2</sup> |
|------------------------|------------------------|---------------|----------|-----------------------------------|
|                        |                        | Andozada      | Bichiqda |                                   |
| 1                      | 2                      | 3             | 4        | 5                                 |
| Old bo`lak lift qismi  | 01                     | 1             | 1        | 11459                             |
| Ort bo`lak lift qismi  | 02                     | 1             | 2        | 26364                             |
| Old bo`lak yubka qismi | 03                     | 1             | 1        | 27807                             |
| Ort bo`lak yubka qismi | 04                     | 1             | 1        | 12540                             |
| Old bo`lak adip qismi  | 05                     | 1             | 1        | 6875                              |

|                       |    |   |   |        |
|-----------------------|----|---|---|--------|
| Ort bo`lak adip qismi | 06 | 1 | 1 | 3575   |
| Belbog`               | 06 | 1 | 2 | 144    |
| lozim                 | 07 | 1 | 2 | 38633  |
| <b>Jami</b>           |    |   |   | 127397 |
|                       |    |   |   | 166030 |

Yangi model uchun sarflangan materiallarning umumiy normasi va o`rtacha normasi hamda andozalararo chiqitlarning o`rtacha normasi aniqlandi.

Umumiy norma loyihalayanayotgan model xususiyatlariga bog`liq holda aniqlandi. Andozalararo chiqitlar maydoni yuzasi qo`shilgan.

### **Yangi model detallari yoyilmasida andozalararo chiqitlarning hisobi**

Yoyilmani bajarishdan avval uning dastlabki uzunligi quyidagicha hisoblanadi:

$$L_p = \frac{H_b}{E} = \frac{602}{150} = 4$$

Bu yerda:

$H_b$  - bo`rlamaning dastlabki normasi;

$E$  - gazlamaning eni, sm.

Bo`rlamaga sarflanadigan materialning dastlabki normasi quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$H_b = \frac{F_a * 100}{(100 - ch) * E} = \frac{88530 * 100}{(100 - 2) * 150} = 602$$

Bu yerda:

$F_a$  -andozalar yuzasi, sm<sup>2</sup>.

$Ch$ -andozalar orasidagi chiqitlar, normativ miqdori.

Yoyilmani bajarishda andozalar yoyilmasiga qo`yiladigan maxsus texnik shartlar va talablarga rioya qilinadi. Xususan yoyilma tuzganda gazlama gullariga, tuklar yo`nalishiga, detallarda tanda va arqoq iplarining yo`nalishiga e'tior beriladi.

Andozalararo chiqitlar foizi quyidagicha hisoblanadi:

$$CH = \frac{F_j - F_a}{F_j} = \frac{90200 - 88530}{90200} * 100 = 1.8\% \approx 2\%$$

Bu yerda:CH-andazalar orasidagi chiqindilar,%;

$F_j$ -joylashma satxi,m<sup>2</sup>

$F_a$ -andazalar satxi,m<sup>2</sup>

### 3. Texnologik bo'lim



#### 3.1. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarish texnologik bogliqligini tahlili


##### 3.1.1. Asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash

Kiyimning sifatini va uni tannarxi ko'p jihatdan tikish usuliga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham tikish usullari yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilish va zamonaviy mashina va moslamalardan maksimal foydalanish imkonini beradi. Oqimlarni loyihalashda tikish usulini oqimda ishlab turgan uskunalarni hisobga olib tanlanadi. Asbob-uskuna va tikish usullari ishlab chiqarish oqimida tayyorlanadigan mahsulot va ishchilar soniga qarab tanlanadi. Shu bilan birga tikuvchilik sanoatini texnika va texnologiyasini takomillashtirish asosiy yo'nalishlarini, detallarni yelimlab ulash, unumdorligi yuqori bo'lgan asbob-uskunalarini maksimal qo'llashni, sermehnat qo'l ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni, ya'ni bichilgan detallar va kam operatsiyali texnologiyadan foydalanishni hisobga olinadi.

Har bir kiyimni ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik jihatdan bo'linmas operatsiyalarning mazmuni va miqdori jarayoning tashkiliy shartlariga bog'liq emas. Kiyim tikish usuli o'zgarishi bilan birga texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiyalarning mazmuni va soni ham o'zgarmaydi. Kiyim tikish qanchalik murakkab undagi detallar soni ko'p, mehnat sarfi yuqori bo'lsa texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiyalar shunchalik ko'p bo'ladi. Texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiyalar tanlangan eng maqbul tikish usullari eksperimental sexda tuziladi. Bu operatsiyalarni ishlab chiqish, tikish usulini aniqlashda ishlaydigan uskunalarini, mexanizatsiya vositalarini, asboblarni tikish texnologik rejimini, ishning qaysi razryadga oidligini va operatsiyalarni bajarish vaqtini belgilaydi.

##### 3.1-jadval. Buyum tikishda qo'llaniladigan chok turlari

| <b>Chok turi</b> | <b>Konstruksiya si</b>                                                              | <b>Qo'llash jarayoni</b>                       | <b>Baxyaqator turi</b>                | <b>Asbob-uskuna va moslama nomi va</b> |
|------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|---------------------------------------|----------------------------------------|
| <b>1</b>         | <b>2</b>                                                                            | <b>3</b>                                       | <b>4</b>                              | <b>5</b>                               |
| Biriktirma chok  |  | Buyumni yelka va yon qirg'irlarini biriktirish | Bir chiziqli ikki ipli mokisimon chok | JUKIDLN-9010SS tikuv mashinasi         |
| Mag'iz chok      |  | Ko'ylakni yeng qismiga mag'iz qo'yish          | Bir chiziqli ikki ipli mokisimon chok | JUKLS2284N-7                           |
| Bostirma chok    |  | Ko'ylakning molniyaligi tasmasini              | Bir chiziqli ikki ipli mokisimon      | JUKI MEB-3200                          |

|                 |                                                                                   |                                              |                  |                                                    |
|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|------------------|----------------------------------------------------|
| YO'RM<br>A chok |  | Ko'ylakni yelka va yon qirqimlarini yo'rmash | Zanjirsimon chok | <b>JUKI N10-6704S</b><br><b>Yo'rmash mashinasi</b> |
|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|------------------|----------------------------------------------------|

**3.2-jadval.** Qotirma qoyish va nambib isitib ishlov berish operatsiyalari va tartibi.

| №        | Operatsiya nomi                  | Qo'llash jarayoni     | Ishlov berish parametrlari |            |                           | Asbob-uskuna |
|----------|----------------------------------|-----------------------|----------------------------|------------|---------------------------|--------------|
|          |                                  |                       | Harorat, °C                | Bosim, mPa | Operatsiya davomiyligi, s |              |
| <b>1</b> | <b>2</b>                         | <b>3</b>              | <b>4</b>                   | <b>5</b>   | <b>6</b>                  | <b>7</b>     |
| 1        | Yorib dazmollash                 | yelka va yon choklari | 100-150                    | 2.5-5      | 10-20                     | JUKI         |
| 2        | Bir tomonga yotqizib dazmollash  | <b>Adip chetlari</b>  | 100-150                    | 2.5-5      | <b>10-20</b>              | JUKI         |
| 3        | <b>Old va ort bo'lak</b>         | <b>Dazmol</b>         | 100-150                    | 2.5-5      | <b>10-20</b>              | JUKI         |
| 4        | Adipni bo'laklarga mustahkamlash | <b>Dazmol</b>         | 100-150                    | 2.5-5      | 10-20                     | JUKI         |

**3.4.- jadval.** Namlab isitib ishlov berish mashina va uskunalari

| Uskuna nomi | Uskuna belgisi i/ch zavodi | Yostiqlar orasida maksimal bosim, MPa | Yuqori yostiqlarni qizdirish harorati. | Sikl davomiyligi, s | Asbob-uskuna o'lchamlari (uzunasi. |
|-------------|----------------------------|---------------------------------------|----------------------------------------|---------------------|------------------------------------|
| <b>1</b>    | <b>2</b>                   | <b>3</b>                              | <b>4</b>                               | <b>5</b>            | <b>6</b>                           |

|      |          |        |         |   |                    |
|------|----------|--------|---------|---|--------------------|
| JUKI | Yaponiya | Bug'li | 160-170 | - | Stol<br>(1400x650) |
|------|----------|--------|---------|---|--------------------|

Hamma asosiy mashina, apparat va presslar uchun qisqacha texnologik tavsif beriladi. Ashob-uskunalarimg texnologik tavsifi jadval shaklida ko'rsatiladi.

Tikuv buyumlarni ishlab chiqarishni kompleks-mehanizasiyalashtirishda avtomatlashgan asbob-uskunadan foydalanish, ixtisoslash darajasini oshirish va

mehnat unumclortigini keskin ko' tarilishi bilan farq qilishi kerak.

### 3.3-jadval. Tikuv mashinalarini texnologik tasnifi

| Asbob-uskuna va i/ch zavodi       | Cho k turi        | Mashin a bosh valining maksimal aylanis h tezligi | Bahy a uzun ligi | Gazla ma surgich    | GOS T 22249 -82 bo'yic h a igna nome ri | Ip nome ri | Tikilayotg an gazlama qalinligi | Qo'shimcha ma'lumotlar                     |
|-----------------------------------|-------------------|---------------------------------------------------|------------------|---------------------|-----------------------------------------|------------|---------------------------------|--------------------------------------------|
| 1                                 | 2                 | 3                                                 | 4                | 5                   | 6                                       | 7          | 8                               | 9                                          |
| JUKIDLN-9010SS tikuv mashinasi    | Moki baxy a qator | 5500                                              | 4                | Ostki chishli reyka | 90                                      | 50         | 4                               | Ipni o'zi uzadi                            |
| JUKI N10-6704S Yo'rmash mashinasi | Zanj ir chok      | 6000                                              | 4                | Ostki chishli reyka | 90                                      | 50         | 4                               | Baxya uzunligi tugmacha bilan boshqariladi |
| JUKI MEB-3200                     | Moki baxy         | 4500                                              | 4                | Ostki chishli       | 90                                      | 50         | 4                               | Ovozsiz ishlaydi                           |

|                  |                            |      |   |                           |    |    |   |                                               |
|------------------|----------------------------|------|---|---------------------------|----|----|---|-----------------------------------------------|
| JUKIS2284<br>N-7 | Moki<br>baxy<br>a<br>qator | 4500 | 4 | Ostki<br>chishli<br>reyka | 90 | 50 | 4 | Moylash<br>sistemi<br>avtomatlashtiril<br>gan |
|------------------|----------------------------|------|---|---------------------------|----|----|---|-----------------------------------------------|

### 3.1.2. Buyum tikish texnologik tartibini tuzish

Tikuv buyumni ishlab chiqarish texnologik jarayonini ma'lumotnomasini shu buyumni tikish tartibi ko'rinishida berish qabul qilingan. Texnologik tartibda buyum tikish texnologik operatsiyalarni ixtisosi, razryadi, bajarish vaqti va qo'llaniladigan asbob-uskuna ko'rsatilib tuziladi. Buyumni ishlab chiqarish jarayonining operatsiyalarini ro'yhati texnologiya, kiyimni loyihalash va ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha namunaviy hujjat asosida normativ-tehnika hujjatlar va buyum tikish texnologiyasi bo'yicha boshqa adabiyotlardan foydalanib tuziladi.

### 3.5-jadval. Buyumga ishlov berishni loyixadagi texnologik tartibi

| № | Texnologik<br>(bo'linmas)<br>operatsiyalar nomi      | Chok<br>kodi | Ihtisosi | Razryadi | Sarf vaqti | Asbob-<br>uskuna<br>(moslamalar) |
|---|------------------------------------------------------|--------------|----------|----------|------------|----------------------------------|
| 1 | 2                                                    | 3            | 4        | 5        | 6          | 7                                |
| 1 | Bichuv sexidan<br>bichiqnlarni patokka<br>topshirish |              | Q        | 2        | 60         | Qo'lda                           |
| 2 | Old bolak adipga<br>qotirma yopishtirish             |              | D        | 2        | 20         | Juki                             |
| 3 | Ort bolak adipga<br>qotirma yopishtirish             |              | D        | 2        | 20         |                                  |
| 4 | Old bolak adip<br>chetlarini yo'rmash                |              | MM       | 4        | 20         | Juki<br>MO6704S                  |
| 5 | Old bolak adip<br>chetlarini yo'rmash                |              | MM       | 4        | 20         | Juki<br>MO6704S                  |

|    |                                                                     |  |           |          |           |                        |
|----|---------------------------------------------------------------------|--|-----------|----------|-----------|------------------------|
| 6  | Ko'ylak ort bolak lifiga molniyalitasma <b>n</b> i birtirib tikish  |  | M         | 2        | 55        | <b>Juki DLN 9010SS</b> |
| 7  | Chokni dazmollash                                                   |  | D         | 2        | 24        | <b>Juki</b>            |
| 8  | <b>Ko'ylakni old va ort qismi yubkaga taxlamalar berish, tikish</b> |  | <b>M</b>  | <b>3</b> | <b>81</b> | <b>Juki DLN 9010SS</b> |
| 9  | Ko'ylak ort bolak lif qismiga yubkani biriktirib tikish             |  | <b>M</b>  | <b>3</b> | <b>48</b> | <b>JUKI MEB 3200</b>   |
| 10 | Biriktirilgan chokni yormash                                        |  | MM        | 4        | 22        | <b>Juki MO6704S</b>    |
| 11 | Biriktirilgan chokni                                                |  | D         | 2        | 24        | <b>Juki</b>            |
| 12 | Ko'ylak ort bolak lif qismiga yubkani                               |  | M         | 3        | 48        | <b>Juki DLN 9010SS</b> |
| 13 | Biriktirilgan chokni yormash                                        |  | <b>MM</b> | <b>4</b> | <b>20</b> | <b>Juki MO6704S</b>    |
| 14 | Biriktirilgan chokni dazmollash                                     |  | D         | 2        | 24        | <b>Juki</b>            |
| 15 | Ko'ylakni old bo'lagiga adipni biriktirib tikish                    |  | M         | 3        | 43        | <b>Juki DLN 9010SS</b> |
| 16 | Biriktirilgan chokni                                                |  | MM        | 4        | 22        | <b>Juki</b>            |
| 17 | <b>Tikilgan adip chetlariga kertim berish</b>                       |  | <b>Q</b>  | <b>2</b> | <b>22</b> | <b>Qo'lda</b>          |
| 18 | Old bolak adipini o'ngiga ag'darib dazmollash                       |  | <b>D</b>  | <b>2</b> | <b>23</b> | <b>Juki</b>            |

|    |                                                    |  |    |   |    |                      |
|----|----------------------------------------------------|--|----|---|----|----------------------|
| 19 | Ko'ylakni ort bo'lagiga adipni biriktirib tikish   |  | M  | 3 | 43 | <b>JUKI MEB 3200</b> |
| 20 | Biriktirilgan chokni yormash                       |  | MM | 4 | 20 | <b>Juki MO6704S</b>  |
| 21 | <b>Tikilgan adip chetlariga kertim berish</b>      |  | Q  | 2 | 22 | Qo'lda               |
| 22 | Ort bolak adipni o'ngidan dazmollash               |  | D  | 2 | 23 | <b>Juki</b>          |
| 23 | Ko'ylakni yelka qirqimlarini biriktirib tikish     |  | M  | 3 | 30 | <b>JUKI MEB 3200</b> |
| 24 | Ko'ylakni yelka qirqimlarini                       |  | MM | 4 | 30 | <b>Juki MO6704S</b>  |
| 25 | Yelka choklarini bir tomonga qaratib               |  | D  | 2 | 20 | <b>Juki</b>          |
| 26 | <b>Ko'ylakni yon tomonlarini biriktirib tikish</b> |  | M  | 3 | 60 | <b>JUKI MEB 3200</b> |
| 27 | Ko'ylakni yon choklarini yormalash                 |  | MM | 4 | 60 | <b>Juki MO6704S</b>  |
| 28 | Yon choklarini bir tomonga qaratib dazmollash      |  | D  | 2 | 80 | <b>Juki</b>          |
| 29 | Yeng omiziniyashirin bahyaga biriktirib            |  | M  | 3 | 40 | <b>JUKI MEB 3200</b> |
| 30 | Tikilgan chokni dazmollash                         |  | D  | 2 | 20 | <b>Juki</b>          |
| 31 | Ko'ylak etagini yashirin bahyaga biriktirib tikish |  | M  | 3 | 52 | <b>JUKI MEB 3200</b> |
| 32 | Ko'ylakni etagini                                  |  | D  | 2 | 20 | <b>Juki</b>          |

|    |                                                                         |  |           |          |           |                          |
|----|-------------------------------------------------------------------------|--|-----------|----------|-----------|--------------------------|
|    | dazmollash                                                              |  |           |          |           |                          |
| 33 | Koylakni ortiqcha<br>iplardan tozalash                                  |  | Q         | 2        | 40        | Qo'lda                   |
| 34 | Ko'ylakka oxirgi<br>namlab isitib ishlov                                |  | D         | 2        | 53        | Juki                     |
| 35 | <b>Lozimni qadam<br/>qirqimlarini<br/>biriktirib tikish</b>             |  | <b>M</b>  | <b>3</b> | <b>50</b> | <b>JUKI MEB<br/>3200</b> |
| 36 | <b>qadam qirqimlarini<br/>yormash</b>                                   |  | <b>MM</b> | <b>4</b> | <b>30</b> | <b>Juki<br/>MO6704S</b>  |
| 37 | Tikilgan chokni bir<br>tomonga dazmollash                               |  | D         | 2        | 38        | Juki                     |
| 38 | Lozimni bel qismiga<br>rezinka qo'vib tikish                            |  | M         | 3        | 50        | Juki DLN<br>9010SS       |
| 39 | Tikilgan chokni<br>yormash                                              |  | MM        | 4        |           | Juki<br>MO6704S          |
| 40 | O'ngidan dazmollash                                                     |  | <b>D</b>  | <b>2</b> | <b>40</b> | <b>Juki</b>              |
| 41 | Lozimni etak qismini<br>yashirin bahya qator<br>bilan biriktirib tikish |  | M         | 3        | 50        | Juki DLN<br>9010SS       |
| 42 | Chokni dazmollash                                                       |  | D         | 2        | 30        | Juki                     |
| 43 | Lozimni dazmollash                                                      |  | D         | 2        | 20        | Juki                     |
| 44 | <b>Tayyor buyumga<br/>oxirgi namlab ishlov<br/>berish</b>               |  | <b>D</b>  | <b>2</b> | <b>30</b> | <b>JUKI</b>              |
| 45 | Qadoqlash                                                               |  | <b>Q</b>  | <b>2</b> | <b>52</b> | <b>Qo'lda</b>            |
|    | Jami                                                                    |  |           | 118      | 1529      |                          |


Bo`linmas operatsiyalarning sarf vaqti namunaviy texnologik hujjat asosida tuziladi yoki hisob yo`li bilan aniqlanadi. 6-ustundagi bo`linmas operatsiyalarning sarf „ vaqti yig'indisi  $\Sigma t_{b.o}$  buyum sermehnathligini ko`rsatadi.

$$T_b = \sum_1^n t_{b.o}=1529$$

7 ustunni tolg'azishda asbob-uskuna va moslamalar to`g'risila toliq ma'lumot beriladi.


### 3.1- rasm. Buyum modeli detal va uzelinesing kesim sxemasi.

A-A - qaytarma qopqoqli qoplama cho`ntakka ishlov berish. Chok turi va shartli tasviri adabiyotlarda berilgan.



### 3.2. Tikuv tsexi va ishlab chiqarish oqimlarini hisoblash

O'zbekiston iqtisodini rivojlantirishning asosiy yo`nalishi xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishda yangi ilmiy texnikaviy progressiyadagi ishlab chiqarishni tashkil etishdir. Xom-ashyo tejamkorligiga erishish chiqindi miqdorini kamaytirish texnologiyalarini ishlab chiqarish kabi vazifalari qo'yiladi.



Shu bilan birgalikda ishlab chiqarish korxonalaridagi texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish hamda yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlangan korxona barpo etish taqazo etiladi. Bu borada viloyatimizda ko'pkina amaliy ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi zamon texnika va texnologiyani rivojlantirish bosqichida tikuv sexi va texnologik oqimlar yangi takomillashtirilgan shakllarida mujassamlangan.

Ular keng assortimentdagi yuqori sifatli buyumlarni ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish jarayon oqimlarini 3ta shakli mavjud:

- oqimsiz (shahsiy), bunda bajaruvchilar soni 1 kishi (yoki brigadada 3-11 ishchi) ishlaydi;
- ommaviy (oqimli) bunda bajaruvchilar soni bittadan ko'p bo'lib ular orasida ish bir ma'romda taqsimlanadi.
- avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, bunda bajaruvchilar bo'lmaydi.

### **3.2.1. Ishlab chiqarish oqimlarini loyihaash masalasini qo'yish.**

#### **Oqim turlari va transport vositalarini tanlash**

Bo'limda tavsiya etilgan oqimlarni strukturasi, smenalar soni, guraxlar, oqimni erkin ishlash ma'romi va yarimfabrikatlarni uzatish uchun tavsiya etilgan transport vositalari asoslab beladi, ishlab chiqarish texnologik oqimlarni afzalligi va kamchiliklari yoritib beriladi. Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy strukturasi har bir seksiya bo'yicha barcha dastlabki ma'lumotlarni tahlili asosida tanlanadi. Ishlab chiqarish oqimini quvvati va ishchilar soniga qarab kichik, o'rta va katta quvvatli oqimlarga bo'linadi.

Kichik quvvatli ishlab chiqarish oqimlarda mehnat taqsimoti kam ishchilar uchun tuziladi, bunda ish o'rinlari turli ixtisosdagi operasiyalar bilan ta'minlanadi, press va mahsus mashinalardan to'liq foydalanilmaydi, tashkiliy operasiyalarni tuzish shartlari buziladi, ishchilarni ixtisoslashtirish darajasi pasayadi, bu esa tehnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni pasayishiga olib keladi.

O'rta quvvatli ishlab chiqarish oqimlarida ish o'rinlarini ixtisoslashtirish darajasi ancha yuqori bo'lib yuqori mehnat unumdorligini ta'minlaydi, mahsus mashinalardan to'liqroq foydalaniladi va tashkiliy operasiyalarni vaqtini moslash imkoniyati oshadi.

Katta quvvatli ishlab chiqarish oqimlari zamonaviy qurilmalarni tadbiq etishga qodir. Ularda mahsus mashinalardan to'liq foydalaniladi, detal va uzellarni tayyorlash va yig'ish uchun apparatlardan, kichik mehanizasiya vositalaridan foydalanib yangi texnologiyalarni qo'llash imkoniyati bo'ladi, shuningdek ish o'rinlaridan to'liq foydalaniladi. Bunday oqimlarni qo'llashda boshqarish harajatlari kamayadi, ish o'rinlarini ixtisoslashtirish darajasi oshgani uchun buyum sifati yaxshilanadi .

Jarayonlararo transport vositalarini tashkil qilish ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan bevosita bog'liq. Tikuvchilik sanoatida hilma-hil transport vositalari qo'llaniladi. O'rta va kichik quvvatli oqimlarga

- polga ornatilgan lp-15;
- aravacha-kronshteyn o`matilgan oqimlar;
- oraliq stollar, nishab stollar va aravachalar tavsiya etiladi.

Italiya, GRF, SFRYU, VNR firmalari ish o`rinlariga detal va yarim fabrikat solingan qutichalarni adreslangan ravishda avtomatik uzatish va saqlash zamonaviy konveyerlarni ishlab chiqmoqda.

Ushbu diplom loyihasida ishni tashkil qilish shakliga ko'ra ishlab chiqarish Oqimi erkin maromli, transport vositasi aravacha.

### **3.2.2. Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy-texnologik yechimini va dastlabki ma'lumotlarni tuzish**

Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy-texnologik yechimini loyihalash uchun dastlabki ma'lumot sifatida loyihalanayotgan buyum modeli va texnologik jarayonni loyihalash uchun topshiriq olinadi.

Agar bir vaqtda ko'p fasonli texnologik jarayonni loyihalash topshirilgan bo'lsa, ishlab chiqarishning texnologik ketma-ketligini xamma modellar uchun quyidagi shartlarni hisobga olgan xoldato`ldiriladi (3.6-jadval).

- buyumni konstruktiv-texnologik o`hshashligi, qo'llaniladigan gazlamalarni tuzilishi va hususiyatlari bir hilligi;
- qo'llaniladigan asbob-uskunalar bir hilligi,
- buyum paketini birdayligi.

